

S. AVEZBAYEV, A.M. MUQUMOV

# YER TUZISHNI LOYIHALASHNING AVTOMATLASHGAN TIZIMLARI

/ O'QUV QO'LLANMA /



Toshkent  
2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI

---

S. AVEZBAYEV, A.M. MUQUMOV

# YER TUZISHNI LOYIHALASHNING AVTOMATLASHGAN TIZIMLARI

/ O'QUV QO'LLANMA /

O'zbekiston Respublikasi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan darslik sifatida 5410700 - Yer kadastr va yerdan foydalanish bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan

Toshkent  
2020

OO'MITV'ning 14.08.2020 y. № 418 sonli buyrug'iga asosan chop etishga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami: 418-378

#### ANNOTATSIYA

O'quv qo'llanma «Yer tuzishda loyihalashning avtomatlashgan tizimlari» fan namunaviy dasturiga mos tarzda tayyorlangan. Unda yer tuzish va yer kadastr ishlarida qo'llaniladigan avtomatlashgan tizimlarni yaratishning nazariy va uslubiy asoslari berilgan, hozirgi kunda yer tuzish tashkilotlari amaliyotida foydalanilayotgan turli darajadagi eng taniqli dasturiy mahsulotlar tavsifi berilgan. Zamonaviy kompyuter va ekspert tizimlari, dasturiy majmualar (GAT VA YAT) asosida yer tuzish loyihalarini ishlab va hisoblashlarni avtomatlashgan tizimlarda amalga oshirish bo'yicha misollar keltirilgan.

#### АННОТАЦИЯ

Учебное пособие подготовлено в соответствии с учебной программой дисциплины "Системы автоматизированного землеустроительного проектирования". В нём даны теоретические и методические основы создания автоматизированных систем применяемых в землеустройстве и кадастровых работах, характеристика применяемых землеустроительными проектами организациями программных продуктов. Даны примеры разработки проектов землеустройства в автоматизированных системах с применением современных компьютеров и экспертных систем, комплексов программ (ГИС и ЗИС).

#### THE SUMMARY

The manual was prepared according to the discipline curriculum "Systems of automated land management projecting". In it theoretical and methodical bases of creation of the automated systems applied in land management and cadastral works, the characteristic applied land managements the design organisations of software products are given. Examples of working out of projects of land management in the automated systems with application of modern computers and expert systems, complexes of programs (GIS and ZIS) are given.

Taqrizchilar: L.M.Museev - "Geodeziya va geoinformatika" kafedrası dotsenti, I.F.N.

Sh.Mayitov - "Geoinformkadasr" DUK direktori

S. Avezbayev, A.M. Muqimov  
/ Yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari /  
O'quv qo'llanma. - T.: TIQXMMI, 2020-134 bet

©. To'ntkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisları instituti (TIQXMMI), 2020 yil.

#### KIRISH

Ma'lumki, qishloq xo'jalik tarmog'i mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, eksport salohiyatini mustahkamlashning istiqbolli manbalaridan biri sanaladi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda ulkan ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga yangi texnika va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishleri yildan-yilga jadallashib, cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda [1].

Respublikamiz yer resurslaridan foydalanish samaradorligini, qishloq xo'jaligi yerlari umumdorligini oshirish, shuningdek, soha faoliyatini takomillashtirish va uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı davlat qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Qabul qilingan hujjatlarda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı davlat qo'mitasining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari sifatida "tuproq umumdorligini oshirish, yertardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish bilan bir qatorda shohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish" kerakligi belgilangan [2].